

KREDIT SHARTNOMASI

_____ -son

“ _____ ” 2026 yil

Toshkent shahri

“Ipoteka-bank” aksiyadorlik tijorat ipoteka banki (bundan buyon shartnoma matnida “Bank” deb yuritiladi) nomidan Nizom va Bosh ishonchnoma asosida harakat qiluvchi Bankning _____ filiali boshqaruvchisi _____ bir tomondan hamda _____ (bundan buyon shartnoma matnida “Qarz oluvchi”) nomidan ustav asosida ish yurituvchi direktor _____ ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida mazkur shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Bank Qarz oluvchiga mazkur shartnomada ko'rsatib o'tilgan miqdorda va shartlar asosida kredit berish, Qarz oluvchi esa Bankdan olingan kredit mablag'larini ushbu shartnomada belgilangan muddatlar va shartlar asosida foizlari va boshqa to'lovlar bilan birga to'lash majburiyatini oladi.

2. KREDIT MIQDORI VA KREDITDAN FOYDALANISH TARTIBI

2.1. Kredit summasi: _____;

2.2. Kredit valyutasi: _____.

2.3. Kreditdan foydalanish muddati: _____ oy;

2.4. Imtiyozli davr: _____.

2.5. Kreditning maqsadi va ob'ekti: _____.

2.6. Kredit resurslari manbai: bankning o'z mablag'lari.

2.7. Kredit mablag'lari harakatining hisobini yuritish maqsadida Bank tomonidan Qarz oluvchi nomiga ssuda hisobvarag'i ochiladi hamda Qarz oluvchining so'rovnomasiga asosan unga ushbu hisobvaraقدan ko'chirma taqdim qilinadi.

2.8. Qarz oluvchining kreditdan foydalanish bo'yicha har qanday talablari, ko'rsatmalari va so'rovlari chaqirib olinmaydigan hisoblanadi.

2.9. Qarz oluvchi ushbu shartnoma shartlariga muvofiq, Bank tomonidan amalga oshirilgan har qanday turdagi to'lovlarni so'zsiz tan oladi (Qarz oluvchining talablari ushbu shartnoma shartlariga zid kelmagan yoki Bank tomonidan uchinchi shaxslar foydasiga chaqirib olinmaydigan to'lov majburiyatlari berilmagan taqdirdagina bajariladi).

Kredit mablag'lari hisobiga sotib olinayotgan mahsulotlarni yetkazib berish (sifat, butlanganlik va x.k.) bo'yicha vujudga keladigan barcha nizo va kelishmovchiliklar, shu jumladan, har qanday uskuna, mexanizm va texnikalar sotib olish bo'yicha Qarz oluvchining uchinchi shaxslar bilan tuzgan (tuzadigan) bitim va shartnomalaridan kelib chiquvchi munosabatlar va nizolar bitim (shartnoma) taraflari o'rtasida shu bitim (shartnoma) shartlari asosida hal qilinadi. Qarz oluvchi ushbu bitim (shartnoma) shartlari va majburiyatlariga asoslangan holda Bankka hech qanday e'tiroz va/yoki shikoyat bildirmaydi.

2.10. Bank tomonidan Qarz oluvchining hisobvaraqlari haqida olingan ko'chirmalar, agarda ularda ochiq xatolar mavjud bo'lmasa, mazkur shartnomaga muvofiq Qarz oluvchining to'lov majburiyatlari vujudga kelganligi yoki ularning bajarilganligi haqida yakuniy ma'lumot hisoblanadi.

2.11. Qarz oluvchi kredit mablag'larini berishdan oldin olib kirilayotgan mahsulot/xom ashyo kelib chiqqan mamlakatni tasdiqlovchi bojxona hujjatlarini Bankka taqdim etadi.

Ushbu hujjatlar bank tomonidan ko'rib chiqiladi va amaldagi sanksiyalar qoidalariga muvofiqligini ta'minlash uchun qo'shimcha tekshirish talab qilinishi mumkin.

Bank ko'rib chiqish va tekshirish qoniqarli yakunlanguniga qadar to'lovni ushlab qolish huquqini o'zida saqlab qolish yoki ushbu tekshirishlar natijasida Bankning sanksiya qoidalarini buzilishiga olib kelishi aniqlansa, to'lovni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

2.12. Qarz oluvchi mazkur kredit doirasida kelgusida ko'rib chiqiladigan har qanday loyihalar, bitimlar yoki operatsiyalar, shu jumladan import/eksport operatsiyalarini moliyalashtirish bilan bog'liq loyihalar, Bank tomonidan alohida baholanadi. Qarz oluvchi Bank

tomonidan ushbu muvofiqlikni baholash uchun talab qilingan barcha zarur hujjatlar va ma'lumotlarni, ayniqsa sanksiya yoki sezuvchan me'yoriy talablarga duchor bo'lgan mamlakatlar, shaxslar yoki tashkilotlar, sanksiya rejimlari tomonidan belgilangan taqiqlarga tushadigan tovarlar/xizmatlarga taalluqli bo'lsa, taqdim etadi.

2.13. Aloxida shartlar:

3. QARZ OLUVCHINING TASDIG'I

3.1. Qarz oluvchi quyidagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:

3.1.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida lozim tarzda tuzilgan va ro'yxatga olingan yuridik shaxs hisoblanadi;

3.1.2. Ushbu Shartnomani tuzish va bajarish uchun zarur bo'lgan barcha vakolatlariga va talab qilinadigan ruxsat beruvchi hujjatlariga ega;

3.1.3. O'zining hozirgi faoliyatini amalga oshirish va ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun barcha zarur korporativ, kreditorlar, ta'asischilar, davlat va ma'muriy ruxsatnomalarga ega.

3.1.4. Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomaning tuzilishi va bajarilishi unga nisbatan qo'llaniladigan har qanday vaqtda qonun yoki qoida, sud va/yoki ma'muriy qarorga zid emas.

3.1.5. Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomani tuzish va bajarish uning ta'asis hujjatlari va/yoki unga majburiy bo'lgan har qanday shartnoma, majburiyat, operatsion yoki boshqa hujjatlariga zid kelmaydi.

3.1.6. ushbu Shartnomani imzolayotgan shaxs, Qarz oluvchining ta'asis hujjatlariga muvofiq vakolatga ega;

3.1.7. Qarz oluvchiga nisbatan Bank mazkur Shartnomaga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi deb baholashi mumkin bo'lgan sud ishlari, arbitraj, ma'muriy jarayonlar yoki suddan tashqari bo'lgan nizolar boshlanmagan yoki boshlanish ehtimoli mavjud emas.

3.1.8 Ushbu Shartnomani imzolash va majburiyatlarini bajarishi bo'yicha vakolatli organining qarori mavjud;

3.1.9. Qarz oluvchi ushbu Shartnomaga muvofiq ajratilgan kredit qarzdorligini to'liq to'langunga qadar o'zining muassislari tarkibida o'zgarishlar kiritilmasligi to'g'risida muassislardan kafolat oling;

3.1.10. Kredit olish va uni rasmiylashtirish uchun Bankka taqdim etilgan/etiladigan barcha hujjat va ma'lumotlar asl va haqiqiy;

3.1.11. Bankka taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar haqiqiy va ular Qarz oluvchining haqiqiy moliyaviy ahvolini aks ettiradi. Qarz oluvchi Bankka taqdim etgan moliyaviy hisobot va boshqa hujjatlarda aks ettirilgan majburiyatlardan boshqa haqiqiy yoki shartli majburiyatlarga, shuningdek boshqa shaxslar foydasiga berilgan kafillikka ega emas;

3.1.12. Qarz oluvchi mazkur kredit shartnomasi bajarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillar jumladan, unga nisbatan vakolatli idoralar va sudlar tomonidan iqtisodiy jarimalar qo'llanilmayotganligi, uning mulklari va aktivlariga uchinchi shaxslar tomonidan undiruv qaratilmayotganligi, hisobotlarda aks ettirilmagan kreditorlik qarzlari mavjud emasligini va Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bajarilmagan majburiyatlari yo'qligini;

3.1.13. Qarz oluvchi Bankning oldindan yozma roziligisiz, boshqa bironta moliyaviy tashkilot, mahalliy yoki xorijiy shaxs bilan bir hil biznes maqsadlariga muvofiq keladigan biron-bir qarz shartnomasi, kredit liniyasi shartnomasi yoki boshqa turdagi shartnomani tuzmaslik majburiyatini oladi. Xususan, moliyaviy tashkilot, mahalliy yoki xorijiy shaxs tomonidan Qarz oluvchiga nisbatan har qanday tavakkalchilikni o'z zimmasiga olish bunday shartnoma hisoblanadi.

3.1.14. Qarz oluvchi unga Bank tomonidan ajratilayotgan kredit to'g'risidagi ma'lumotlarni Kredit ma'lumotlari davlat reestri va kredit byurolariga taqdim etilishiga o'z roziligini bergan.

3.1.15. Qarz oluvchi tomonidan uning aktivlari uchinchi shaxslar foydasiga garovga qo'yilmagan, Qarz oluvchining mulkiga nisbatan ushlab qolish huquqi mavjud emas va bunday holat bo'lgan taqdirda, Qarz oluvchi Bankni xabardor qilishni o'z zimmasiga oladi.

3.1.16. Qarz oluvchi tomonidan Bankka taqdim etilgan barcha ma'lumotlar vijdonan va ehtiyotkorlik bilan tayyorlangan, va taqdim etilgan sanada Shartnoma qoidalariga zid emas.

3.1.17. Qarz oluvchi har qanday ma'lumotdagi moliyaviy prognozlar (xususan, biznes-reja, loyiha byudjeti va moliyaviy model) so'nggi tarixiy ma'lumotlar va asosli taxminlar asosida tuzilgan.

3.1.18. Qarz oluvchining Bankka taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yoki har qanday nuqtai nazardan chalg'ituvchi bo'lishiga olib keladigan hech qanday ma'lumot berilmagan yoki yashirilmagan.

3.1.19. Qarz oluvchi tomonidan Bankka yozma ravishda oshkor etilmagan biroq oshkor etilgan taqdirda, Kredit ajratish qarorga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan biron bir muhim fakt(lar), hodisa(lar) yoki holatlar(lar) to'g'risida xabardor emas.

3.1.20. Qarz oluvchi o'zining boshlang'ich moliyaviy hisobotlari va oraliq moliyaviy hisobotlari Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) yoki, qonunchilik ruxsat etgan hollarda, mahalliy qabul qilingan buxgalteriya hisobi prinsiplari (GAAP)ga muvofiq ravishda va barqarorlik bilan tayyorlanganini va tayyorlanishini kafolatlaydi.

Qarz oluvchi o'zining boshlang'ich moliyaviy hisobotlari va oraliq moliyaviy hisobotlari tegishli moliyaviy davrdagi moliyaviy holati va operatsiyalarini to'liq aks ettirishini va Bankka taqdim etilgan eng oxirgi boshlang'ich moliyaviy hisobotlar yoki oraliq moliyaviy hisobotlar sanasidan boshlab uning biznesi yoki moliyaviy holatida jiddiy salbiy o'zgarishlar bo'lmaganini tasdiqlaydi va kafolatlaydi.

3.1.21. Bank fikriga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan hech qanday hodisa yoki holatlar ro'y bermagan.

3.1.22. Ushbu Shartnoma doirasida majburiyatlarni bajarmaslik holati deb hisoblanadigan hech qanday holat yoki sharoit mavjud emas.

3.1.23. Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma doirasida olingan har qanday va barcha majburiyatlar huquqiy jihatdan majburiy, haqiqiy va qonuniy kuchga ega.

4. KREDITNI QAYTARISH, XARAJATLARNI QOPLASH TARTIBI VA BOSHQA TO'LOVLAR MIQDORI

4.1. Qarz oluvchi ushbu shartnoma va u bilan bog'liq boshqa hujjatlarni tayyorlash, rasmiylashtirish, ro'yxatga olish bilan bog'liq barcha xarajatlarni Bankning birinchi talabiga ko'ra to'lab beradi.

4.2. Qarz oluvchi ushbu shartnoma bo'yicha kreditni shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan kredit to'lovlari jadvaliga muvofiq bosqichma-bosqich o'z sanasi va summasi doirasida amalga oshirish yo'li bilan to'lab boradi.

4.3. Ushbu shartnoma bo'yicha ajratilgan kredit mablag'larining so'ndirilgan qismi qayta o'zlashtirilmaydi.

4.4. Qarz oluvchi tomonidan qabul qilingan muddatli majburiyatnomalar hamda mazkur shartnoma shartlariga asosan hisoblangan foiz va boshqa to'lovlar memorial order orqali undirib olinadi.

Agar amalga oshirilgan to'lov summasi Qarz oluvchining kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmasa, Qarz oluvchining qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

1) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;

3) neustoyka (jarima, penya);

4) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

4.5. Ushbu shartnoma bo'yicha kechiktirilgan barcha to'lovlar, Bankning birinchi talabiga binoan Qarz oluvchi tomonidan darhol to'lab berilishi lozim.

4.6. Agar Qarz oluvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan to'lovlar O'zbekiston Respublikasida belgilangan ish kuniga to'g'ri kelmay qolsa, unda bunday to'lovlar ish kuni bo'lmagan kunning keyingi kunida to'lanishi lozim.

4.7. Bank qo'shimcha xarajatlar talab qilinadigan Qarz oluvchining talablari yoki ushbu shartnoma shartlarini to'lov ushbu xarajatlar Qarz oluvchi tomonidan to'liq qoplab berilmagunga qadar bajarmaslikka yoki ijro qilmaslikka haqli ekanligiga Qarz oluvchi o'z roziligini bildiradi.

4.8. Qarz oluvchi tomonidan kreditni qaytarish bo'yicha barcha to'lovlar, ya'ni asosiy qarzi, kreditga hisoblangan foizlar va boshqa to'lovlar kredit valyutasida amalga oshiriladi.

4.9. Qarz oluvchining tanlovi bilan kredit xorijiy valyutada ajratilgan bo'lsa, xorijiy valyuta kursining o'zgarishi natijasida xorijiy valyutada olingan kredit bo'yicha milliy valyutada qarzi yukining oshishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan oqibatlar Qarz oluvchining tavakkalchiligi hisoblanadi.

Ushbu shartnoma Bank zimmasiga Qarz oluvchining hisobvaraqlaridagi milliy valyutada mablag'larni xorijiy valyutaga konvertatsiya qilish majburiyatini yuklamaydi.

4.10. Bank Qarz oluvchi tomonidan kredit va boshqa to'lovlarni qoplash uchun kerakli mablag'larni ushbu shartnoma shartlariga muvofiq kredit valyutasida qabul qilib olgandan so'ng, Qarz oluvchi tomonidan to'lov majburiyatlari to'liq bajarilgan hisoblanadi.

4.11. Ushbu shartnomaga asosan moliyalashtirish boshlangandan so'ng Qarz oluvchi o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi natijasida Bank zarar ko'rgan taqdirda, Bank ko'rgan har qanday zararlar Qarz oluvchi tomonidan Bankka to'liq qoplab beriladi.

4.12. Bank Qarz oluvchining to'lov majburiyatlarini qoplash maqsadida uning boshqa tijorat banklarida ochilgan barcha hisobvaraqlariga akseptsiz to'lov talabnomalari qo'yadi hamda kerakli summani undirib oladi.

4.13. Mazkur kredit shartnomasi tuzilganidan so'ng kredit bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlari o'zgarisa, kredit shartnomasining shartlari tomonlar o'rtasida qayta ko'rib chiqilsa (shu jumladan, kredit restrukturizatsiya qilinsa), ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv rasmiylashtirish yo'li bilan, kreditni qaytarish jadvaliga o'zgartirish kiritiladi.

4.14. Qarz oluvchi tomonidan kredit qisman yoki to'liq muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan kredit bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki kreditning oraliq asosiy qarzi to'lovlarning miqdorlari o'zgarmaydi. Foiz to'lovlari asosiy qarzni qoldig'iga nisbatan ushbu shartnoma qoidalariga muvofiq hisoblanadi.

5. KREDIT BO'YICHA FOIZLAR

5.1. Qarz oluvchiga ajratilgan kredit bo'yicha yillik foiz stavkasi _____ foizni tashkil qiladi. Kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi turi: o'zgarmas.

5.2. Kreditning asosiy summasi va foizlarini to'lash usuli: differensial yoki annuitet.

5.3. Kredit bo'yicha foizlar kalendar yili davomida _____ kunlik muddat asosida, kreditning kunlik qoldig'idan kredit to'liq qaytarilgan kunga qadar hisoblab boriladi hamda kredit to'lovlari jadvaliga muvofiq kreditni to'lash sanasida to'lab boriladi.

6.1. BANKNING HUQUQLARI:

6.1.1. Kreditlash jarayonida ajratilgan kreditga tegishli bo'lgan buxgalteriya va statistik hisobotlarni (korxonaning moliyaviy-xo'jalik ahvoli, kreditdan maqsadli foydalanishi, kreditning ta'minlanganligi, kreditga layoqatliligi va boshqalar) olish va ishonchligini tahlil qilish.

6.1.2. Qarz oluvchi ushbu shartnomaning 2-bo'limida belgilangan muddat ichida kreditni o'zlashtirmagan taqdirda kredit ajratishni rad qilish.

6.1.3. Qarz oluvchidan kreditdan maqsadli foydalanayotganligini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilib olish.

6.1.4. Monitoring jarayonida kredit ta'minotining yetarliligi, butligi, likvidligi ta'minlanmagan, qiymati pasaygan yoki kafilning to'lov layoqati yomonlashgan bo'lsa, Qarz oluvchidan qo'shimcha ta'minot taqdim etishni yoki berilgan ta'minotni 30 (o'ttiz) kun ichida almashtirishni talab qilish.

6.1.5. Ushbu Shartnoma bo'yicha kechiktirilgan qarzдорlik va boshqa to'lovlar yuzaga kelgan hollarda Qarz oluvchining har qanday banklarda barcha milliy va chet el valyutasida ochilgan birlamchi va ikkilamchi hisobvaraqlaridan mablag'larni qarzдорlik doirasida akseptsiz tartibda inkasso topshiriqnomasi yoki to'lov talabnomasi orqali undirib olish.

6.1.6. Qarz oluvchi to'lovga layoqatsiz (bankrot) deb topilganda, o'z faoliyatini to'xtatganida yoki tugatish jarayonini boshlaganida, kreditni ta'minlash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganda, kredit taminotini rasmiylashtirish bilan bog'liq hujjatlarga Bankning e'tirozi bo'lganda va ushbu e'tirozlarga sabab bo'lgan holatlar bartaraf etilmaganida, kreditdan maqsadsiz foydalanganda, ushbu shartnoma imzolanganidan keyin ajratilgan kreditni qaytarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumot va hisobotlarning haqqoniy emasligi aniqlanganda hamda Qarz oluvchi tomonidan Bankning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlari kuchga kirgan vaqtdan boshlab, mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatlar davomida kreditdan foydalanilmaganda (to'lov hujjatlarini taqdim etmaslik) ushbu shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortish.

6.1.7. Ushbu shartnomaning 8-bo'limida ko'rsatib o'tilgan majburiyatlarni bajarmaslik holatlari vujudga kelganida, kreditlashni to'xtatish, kreditning asosiy qarzi va foizlarni muddatidan oldin, undiruvni kredit ta'minotiga qaratish orqali undirib olish.

6.1.8. Bevosita Qarz oluvchi ishtirokida maqsadli tekshirishlar (monitoring)ni amalga oshirish.

6.1.9. Qarz oluvchining kredit tarixini shakllantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Kredit axborotining davlat reestrini yuritish departamentiga" (KADR) va "Kredit axborotlari taxlil markazi" Kredit byurosi MChJga (KATM)ga taqdim etish, shuningdek, garov, uning holati to'g'risidagi ma'lumotlarni Garov reestri DUKga taqdim etish.

6.1.10. Zarur hollarda Qarz oluvchi va rahbarlari/ta'sischi lari to'g'risidagi ma'lumotlarni "Bank siri to'g'risida"gi va "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq belgilangan tartibda tegishli organlarga taqdim etish.

6.1.11. Barcha Bank moliyalashtirishlari mahalliy va xalqaro sanksiyalar, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropa Ittifoqi (EI), Amerika Qo'shma Shtatlari Moliya vazirligi (OFAC) va tegishli hollarda Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi (UK) tomonidan joriy qilingan sanksiyalar bilan muvofiqligini ta'minlash uchun nazoratga olinadi.

Bank va Qarz oluvchi o'rtasida biznes munosabatlari boshlanishidan oldin va boshlangandan keyin ham, Qarz oluvchi va uning affillangan shaxslari rasmiy sanksiyalar yoki embargo ro'yxatlariga kiritilganligi aniqlansa, ushbu munosabatlarni boshlash yoki davom ettirish Bankning obro'siga xavf tug'dirsa, shartnomani tuzmaslik yoki uni bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.1.12. Agar Qarz oluvchi yoki uning affillangan shaxslari sanksiyalar ro'yxatiga kiritilsa yoki ushbu Shartnomani davom ettirishni taqiqlaydigan yoki noqonuniy harakatga keltiruvchi cheklov choralariga duchor bo'lsa, Bank quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- ushbu Shartnomani bekor qilish va kreditning to'liq qaytarilishini, shu jumladan hisoblangan foizlar va boshqa xarajatlarni to'lashni talab qilish;

- Qarz oluvchi va uning affillangan shaxslaridan Bankda mavjud bo'lgan barcha hisobvaraqlarni yopishni talab qilish;

– muvofiqlikni qayta ko‘rib chiqish tugallangunga qadar hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni muzlatish yoki to‘xtatib turish.

6.1.13. Ekologik va ijtimoiy masalalarda yuqori risk toifaga mansub loyihalar bo‘yicha Qarz oluvchidan olingan loyihaga aloqador ma‘lumotlarni o‘rnatilgan tartibda o‘zining va xorijiy hamkorlari/ta‘sischilari rasmiy veb saytida joylashtirish.

6.1.14. Bank amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

6.2. BANKNING MAJBURIYATLARI:

6.2.1. Qarz oluvchi ushbu kredit shartnomasida nazarda tutilgan lozim darajada rasmiylashtirilgan kredit ta‘minotini Bankka taqdim qilganidan hamda ushbu shartnomada nazarda tutilgan kredit ajratilguniga qadar bajarilishini o‘z zimmasiga olgan boshqa majburiyatlarini bajarganidan so‘ng, ushbu shartnomada ko‘rsatilgan muddatda va ilovaga muvofiq kredit mablag‘larini qaytarish sharti bilan Qarz oluvchining yozma topshirig‘iga asosan uning tegishli hisobvarag‘iga o‘tkazib berish.

6.2.2. Kreditdan foydalanish hisobini yuritish, kredit bo‘yicha qarzni qaytarish va foizlarni hisoblash maqsadida ssuda hisobvarag‘ini ochish.

6.2.3. Kreditlashni Bankning vakillik hisobvarag‘iga jalb etilgan kredit mablag‘lari kelib tushishiga qarab amalga oshirish (jalb etilgan resurslar hisobidan kreditlangan hollarda).

6.2.4. Bankka amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

6.3. QARZ OLUVCHINING HUQUQLARI:

6.3.1. Oldindan (10 kun davomida) Bankni yozma ravishda xabardor qilib, kredit olishdan to‘liq yoki qisman to‘lovsiz voz kechish.

6.3.2. Kredit bo‘yicha qarzni muddatidan oldin kredit valyutasida qaytarish.

6.3.3. Kredit qarzdorliklari bo‘yicha Bankdan ma‘lumotlar olish.

6.3.4. Qarz oluvchi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

6.4. QARZ OLUVCHINING MAJBURIYATLARI:

6.4.1. Kreditni, u bo‘yicha hisoblangan foizlar va hamda ushbu shartnomada nazarda tutilgan boshqa to‘lovlarni mazkur shartnomada belgilangan tartib va muddatlarda (shartnoma Qarz oluvchi o‘z majburiyatlarini buzganligi uchun tomonlarning kelishuvi yoki sud tartibida bekor qilingan taqdirda ham) to‘liq to‘lanishini ta‘minlash.

6.4.2. Kreditning qaytarilishini ta‘minlash maqsadida tegishli tarzda rasmiylashtirilgan ushbu shartnomada kelishilgan ta‘minotni taqdim etish.

6.4.3. Kreditdan foydalanish davomida kreditlashning asosiy tamoyillari: muddatlilik, qaytarishlilik, maqsadlilik, to‘lovlilik va ta‘minlanganlik tamoyillariga rioya qilish.

6.4.4. Har bir kalendar chorakning oxiridagi kundan boshlab 60 kun ichida Bankka, Bank tomonidan belgilangan shakl va mazmunda, shu jumladan, balans, foyda va zarar hisoboti, umumiy hisob reestri, naqd pul daftari, hisob daftari, eski mijoz/ta‘minotchi hisoboti, boshqa moliyaviy institutlar oldidagi balansda va balansdan tashqari majburiyatlar to‘g‘risidagi hisobot, ochiq shartnomalar to‘g‘risidagi hisobot, buyurtma va shartnomalar portfeli to‘g‘risidagi hisobot va tahlil uchun boshqa hisobotlar va ma‘lumotlarni taqdim etish.

6.4.5. Har moliya yili yakunidan so‘ng, 90 kun ichida mazkur moliya yili bo‘yicha o‘rnatilgan buxgalteriya hisobi standartlariga asosan tayyorlangan, tegishli soliq idoralarida qabul qilingan Qarz oluvchining to‘liq moliyaviy hisobotini taqdim etish.

6.4.4. va 6.4.5. bandlarida qayd etilgan hisobotlarni muddatida taqdim qilmaslikning har bir holati uchun Qarz oluvchi bazaviy hisoblash miqdorining 2 barobari miqdorida jarima to‘laydi.

6.4.6. Qarz oluvchi Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hollarda, o‘ziga nisbatan tatbiq etiladigan barcha qonunlarga to‘liq rioya qilishi shart.

6.4.6. Qarz oluvchining moliyaviy xolatiga, kreditning qaytarilishiga va foizlarning to‘lanishiga, shuningdek kreditlanayotgan loyihani amalga oshirilishiga salbiy ta‘sir qiluvchi har qanday sezilarli o‘zgarishlar yoki vujudga kelgan sharoitlar haqida Bankka zudlik bilan xabar berish.

6.4.7. Ushbu shartnomada ko‘rsatilgan xizmatlarni amalga oshirish uchun lozim bo‘lgan hujjatlarni Bankka taqdim etish.

6.4.8. Bank xodimlarini kredit maqsadli ishlatilganligini tekshirish (Qarz oluvchining moliyaviy holati, hisob yuritish hamda hisobot berish axvoli, kreditdan maqsadli foydalanish, kreditlangan tovar-moddiy boyliklarning yoki garovga qo‘yilgan mulkning saqlanish va butligi masalalari bo‘yicha) joriy monitoring va nazorat o‘lchovlari o‘tkazishlari uchun ishlab chiqarish, ombor, xizmat va boshqa binolar/hududlarga kiritish, shuningdek ularning talablariga asosan birlamchi hisobot va buxgalterlik hujjatlari bilan tanishishlariga ruxsat berish. Maqsadli tekshirishlar muddati Qarz oluvchining roziligisiz Bank tomonidan belgilanadi.

6.4.9. O‘zining faoliyatini amalga oshirish va mazkur shartnoma shartlarini bajarish uchun lozim bo‘lgan barcha ruxsatnoma va litsenziyalarni o‘z vaqtida olish va yangilash yoki ularni olish va yangilash imkoniyati yo‘qligi haqida Bankka darhol xabar berish.

6.4.10. Tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirmaslik yoki Qarz oluvchining moliyaviy ahvoriga o‘z ta‘sirini o‘tkazuvchi har qanday boshqa qayta tashkil etishlarni amalga oshirmaslik.

6.4.11. Kredit mablag‘laridan maqsadli foydalanilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni tovarlar sotib olingandan so‘ng yoki xizmatlar bajarilgandan so‘ng 5 kun ichida Bankka taqdim etish.

6.4.12. Qarz to‘liq qaytarilguniga qadar Qarz oluvchi Bankning oldindan yozma roziligisiz o‘z a‘zolari yoki egalariga hech qanday dividend, oldindan to‘lanadigan dividend yoki shu kabi maqsadda to‘lov amalga oshirmaslik.

6.4.13. Kredit jalb kilingan mablaglar yoki kredit liniyasi xisobidan ajratilgan takdirida, mablag takdim etuvchi tomonidan kuyilgan talablarga amal kilish va shartlarni bajarish, xamda Bank tomonidan so‘ralganda kerakli ma‘lumotlarni 3 ish kuni ichida takdim etish.

6.4.14. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi quyidagilarning bajarilishini ta‘minlashi lozim:

– o‘z faoliyatini va operatsiyalarni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirish;

– Shartnoma bo‘yicha to‘lov majburiyatlari barcha boshqa ta‘minlanmagan va talab darajasida ustun bo‘lmagan kreditorlar oldidagi da‘volar bilan kamida bir xil darajada turadi, yuridik shaxslarga umumiy qo‘llaniladigan qonun bilan majburiy ravishda ustunlik berilgan majburiyatlar bundan mustasno;

– kredit ta‘minoti o‘z qiymatini yo‘qotganida (garov mulki nobud bo‘lganida, kafilning moliyaviy holati yomonlashganida va hokazo) yoki boshqa har qanday sababga ko‘ra kredit to‘liq yoki qisman ta‘minotsiz qolganida yoki ta‘minosiz qolish xavfi vujudga kelganida, Bankning birinchi talabiga ko‘ra, kredit qoldig‘ini kredit ta‘minoti yetarli bo‘ladigan summagacha kamaytirish yoki boshqa Bank uchun ma‘qul keladigan ta‘minot taqdim qilish;

– o‘z faoliyatini malakali rahbarlari nazorati ostida lozim darajadagi samaradorlik bilan qonunchilikka muvofiq, shuningdek umumiy qabul qilingan tamoyillar va sog‘lom amaliyotga asoslanib amalga oshirish (faoliyat yuritish);

– o‘z mulkini, asbob-uskunalari va boshqa mol-mulkini ishchi holatda saqlash;

– Qarz oluvchining moliyaviy holatini va uning operatsiyalari natijalarini aniq va to‘g‘ri aks ettiradigan buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini hamda boshqa moliya hisobotlarini amaldagi buxgalterlik qonunlari va hisobot qoidalariga asosan yuritish (olib borish);

– agar Bank boshqa shartlarga rozi bo‘lmasa, Qarz oluvchi aylanma mablag‘larini belgilangan me‘yor (normativ)dan, shuningdek boshqa koeffitsientlarning (qaytarish, likvidlik, avtonomiya va boshqalar) kredit berish vaqtida qayd etilgan darajadan past bo‘lmagan holda bo‘lishini ta‘minlash;

– kredit hisobiga sotib olingan tovarlardan lozim darajadagi samaradorlik bilan xavfsizlik, atrof muhitni muhofaza qilish normalari va amaliyotiga asosan foydalanish;

– kreditning qaytarilishiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi har qanday sud nizolari, shartnomaviy majburiyatlardagi yoki moliyaviy holatidagi boshqa oʻzgarishlardan Bankni xabardor qilib turish.

6.4.15. Qarz toʻliq qaytarilgunga qadar Bankning talablari, Qarz oluvchiga nisbatan amal qiladigan qonunlarga muvofiq afzallikka ega boʻlgan toʻlov majburiyatlaridan tashqari, mavjud yoki kelgusi barcha garovsiz va kichik huquqlarga ega boʻlmagan kreditor talablariga nisbatan kamida bir xil ustuvorlikka ega boʻlishini taʼminlashi shart.

6.4.16. Mazkur shartnoma kuchda boʻlgan davrda Bankning oldindan yozma ravishda roziligini olmasdan, Qarz oluvchi quyidagi harakatlardan birortasini amalga oshirmaslik majburiyatini oʻz zimmasiga oladi:

– shoʻba korxonasi ochish, tijorat tashkilotlarining muassisi sifatida ishtirok etish va ularning ustav fondini shakllantirish uchun mablagʻ kiritish hamda oʻz taʼsis hujjatlariga katta ahamiyatga ega boʻlgan muhim oʻzgartirishlar kiritish;

– har qanday qayta tashkil etish va tugatish jarayonlarini amalga oshirish;

– mulkning hammasini yoki bir qismini sotish yoki boshqa yoʻllar bilan begonalashtirish, begona shaxslarga berish, garovga qoʻyish, ushlab qolish huquqi va uchinchi shaxslar foydasiga oʻz mulkiga nisbatan boshqa imtiyozli huquqlarni vujudga keltirish;

– Qarz toʻliq qaytarilgunga qadar oʻz aktivlarini sotmaslik, oʻtkazmaslik, boshqa shaxsga berish yoki ijaraga bermaslik va oʻz aktivlariga nisbatan mulk huquqi, tasarruf, foydalanish, ishlatish va/yoki egalik qilish huquqlarini (bundan buyon matnda “Tasarruf tranzaksiyalari”)ni hech qanday shaklda amalga oshirish. Odatdagi xoʻjalik faoliyati doirasida, bozor narxlariga muvofiq va halollik asosida amalga oshiriladigan Tasarruf tranzaksiyalari ushbu taqiqdan mustasno.

– Bankning yozma rozilgisiz oʻz kapitalini kamaytirmaslik yoki toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bilvosita oʻz kapitalini (ulushlari yoki biznes ulushlarini) sotib olmaslik.

– boshqa kompaniya bilan qoʻshilish, boʻlinma tarkibiga kirish, tan olingan yoki aslida mavjud boʻlgan kompaniyalar guruhi aʼzosi boʻlish, boshqa kompaniyani tuzishda ishtirok etish, boshqa kompaniyada taʼsir koʻrsatish huquqini qoʻlga kiritish yoki tugatish tartibini boshlash yoxud shunga oʻxshash huquqiy oqibatlarga olib keladigan boshqa jarayonlarni amalga oshirmaslik.

– oʻz tadbirkorlik faoliyatini outsorsingga berish, yaʼni oʻz tadbirkorlik faoliyatini boshqa kompaniya yoki korxonada doirasida amalga oshirish va oʻz tadbirkorlik faoliyatini boshqa shaxsga berish;

– Qarz oluvchi kreditni toʻliq toʻlamaguncha, Kompaniya guruhi aʼzolari yoki uning egalari tomonidan Qarz oluvchiga taqdim etilgan barcha kreditlar, qarzlari yoki shu kabi moliyaviy majburiyatlarni Bank oldidagi Qarzgacha nisbatan keyin qoʻyish, shuningdek, mazkur mablagʻlarni toʻlamasligi yoki har qanday shaklda toʻlovlar amalga oshirmasligi shart.

– boshqa kreditorlardan qarz olish, boshqa shaxslarga qarz berish, moliyaviy yordam koʻrsatish, uchinchi shaxslarning kreditorlari oldida kafil boʻlish, uchinchi shaxslar nomidan toʻlovlarni amalga oshirish va boshqa banklarda bank hisobvaragʻini ochish.

6.4.17. Ushbu shartnomaning 3 boʻlimida belgilangan tasdiq va kafolatlarning toʻgʻriligini taʼminlash.

6.4.18. Shartnomada belgilangan qarzni toʻliq toʻlamagunga qadar, Qarz oluvchi oʻzining asosiy faoliyati uchun zarur boʻlgan shartnomalar bilan birgalikda ushbu Shartnomani imzolash paytida amalga oshirilgan asosiy biznes faoliyatini saqlab qolish yoki ularni boshqa tegishli shartnomalar bilan almashtirish majburiyatini oladi.

6.4.19. Qarz oluvchi qarz toʻliq qaytarilgunga qadar boshqa kreditorlarga ushbu Shartnomada koʻzda tutilgan taʼminotdan koʻra afzalroq garov taʼminotini taqdim etsa, Qarz oluvchi Bankka ham shunday qulay garov taʼminotini darhol yozma ravishda taklif qilish majburiyatini oladi.

6.4.20. Qarz oluvchi o'zining biznes jarayonida zarur bo'lgan haqiqiy operatsion xarajatlar va loyiha byudjetida belgilangan maqsadlarga aloqador bo'lmagan uchinchi shaxslarga to'lanadigan har qanday to'lovlar yoki komissiyalarni to'lamaslik majburiyatini oladi.

6.4.21. Qarz oluvchi hech qanday haq yoki komissiya to'lovlarini to'lamasligi va hech qanday taqsimot yoki shu bilan bog'liq boshqa to'lovlarni amalga oshirmasligi lozim, uchinchi shaxslarga (bog'liq bo'lmagan shaxslarga) bozor sharoitlariga muvofiq ravishda to'lanadigan haq, komissiya yoki boshqa xarajatlar bundan mustasno. Bunday shaxslar Qarz oluvchiga odatiy xo'jalik faoliyati jarayonida zarur bo'lgan xizmat yoki maslahat ko'rsatgan bo'lishi va bunday xarajatlar Loyiha byudjeti (ya'ni Qarz oluvchining daromad va xarajatlar uchun tasdiqlangan moliyaviy rejasi)ga muvofiq ravishda belgilangan yoki haqiqiy operatsion xarajatlar (ya'ni biznes faoliyati uchun zarur va asosli xarajatlar)i bo'lishi kerak. Ushbu cheklov tasdiqlangan taqsimot (Permitted Distribution)ga tatbiq etilmaydi va ushbu Shartnoma doirasida aniq ruxsat etilgan har qanday taqsimot yoki to'lovni anglatadi.

6.4.22. Qarz oluvchi Qarz to'liq qaytarilgunga qadar o'z huquqlari, aktivlari, daromadlari, ko'char va ko'chmas mulklari yoki boshqa aktivlariga nisbatan Bank tomonidan tasdiqlangan ruxsat etilgan yuklamalardan tashqari har qanday yuklama yoki huquqiy garov o'rnatmaydi yoki mavjud bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

6.4.23. Qarz oluvchi, ruxsat etilgan garovlar to'g'risidagi kelishuvlardan tashqari, Bankning oldindan yozma roziligisiz Bankdan tashqari moliya institutlari, mahalliy yoki xorijiy shaxslar bilan garov shartnomalari, ta'minlash shartnomalari yoki shunga o'xshash xo'jalik natijalarini keltirib chiqaradigan boshqa shartnomalarni tuzmaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Xususan, garov shartnomalari, garov depoziti shartnomalari va kafillik yoki kafolat shartnomalari yoki bayonotlari shunday shartnomalar deb hisoblanadi.

6.4.24. Qarz oluvchi, shuningdek, Bankning oldindan yozma roziligisiz Bankdan tashqari moliya institutlari, mahalliy yoki xorijiy shaxslar foydasiga inkasso buyruqlarini taqdim etishga ruxsat bermaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

6.4.25. Kreditdan faqat mazkur shartnomada ko'rsatib o'tilgan maqsadlarda foydalanish.

6.4.26. Qarz oluvchining pochta manzili o'zgartirganda, 3 (uch) kunlik muddat ichida Bankni xabardor qilish.

6.4.27. Kredit mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihaga aloqador bo'lgan uchinchi shaxslar (pudratchilar, mol yetkazib beruvchilar, hamkorlar va boshqalar) o'z ish faoliyatida yoki faoliyati natijasida atrof-muhit (ekologiya) va insonlarga (ishchi xodimlar, loyiha amalga oshirilayotgan hududga yaqin joyda istiqomat qiluvchi aholi va boshqalarga) zarar keltiruvchi holatlar va/yoki loyihaning amalga oshirilishiga salbiy ta'sir etuvchi barcha voqealar va hodisalar, jarayonlar, omillar (portlash, kimyoviy moddalar bilan noto'g'ri muomala qilish, ularning yerga/tuproqqa to'kilishi natijasida atrof-muhitga zarar yetishi, shuningdek ularning barcha turdagi nojo'ya ta'siri natijasida kelib chiquvchi jarohatlar, o'limga olib keluvchi baxtsiz xodisalar, majburiy hamda bolalar mehnati va boshqalar) to'g'risida Qarz oluvchiga ma'lum bo'lgan zahoti va/yoki ushbu holatlar sodir/paydo bo'lgan paytdan boshlab eng ko'pi bilan 3 kun mobaynida, ushbu holatlar to'g'risidagi mavjud barcha tafsilotlar, ularning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan/ko'rilayotgan chora-tadbirlar va/yoki ish-rejasi, kelgusida shu kabi salbiy voqea-hodisalarning takroriy yuz bermasligi bo'yicha amalga oshirilishi belgilangan amaliy tadbirlar to'g'risida Bankka ma'lumot taqdim qilish.

6.4.28. Qarz oluvchi yoki uning affillangan shaxslari sanksiyalarga yoki cheklov choralari uchun bo'lgan holda, bu haqida Bankni darhol xabardor qilish majburiyatini oladi. Qarz oluvchi bundan tashqari, ushbu sanksiyalar tufayli yuzaga kelgan har qanday xavflarni kamaytirish uchun Bank bilan to'liq hamkorlik qilishga, jumladan, lekin shu bilan cheklanmagan holda, kreditning muddatidan oldin qaytarilishi hamda barcha hisobvaraqlarning to'xtatilishi yoki yopilishiga roziligini bildiradi.

6.4.29. Qarz oluvchi 2.11.-bandiga muvofiq minimal hisob aylanmasiga rioya qilishni o'z zimmasiga oladi.

6.4.30. Qarz oluvchi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilishi.

6.4.31. Qarz oluvchiga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

7. KREDIT BO‘YICHA TA‘MINOT

7.1. Mazkur shartnoma asosida ajratiladigan kredit quyidagi mulk(lar) bilan ta‘minlanadi:

1.

2.

.....

7.2. Qarz oluvchi kredit ta‘minotini kredit summasining kamida _____ % miqdorida saqlash majburiyatini oladi.

7.3. Qarz oluvchi Bankda ochilgan hisobvaraqa _____ miqdordagi/ Bankda ochilgan hisobvaraqdagi umumiy xavfga mutanosib hisob aylanmasini, qarz summasi valyutasida, ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab ___ to‘liq oy mobaynida amalga oshirishi shart.

7.4. Hisob aylanmasi: Mijozning hisobvaraqa(lar)iga o‘tgan o‘n ikki (12) oy mobaynida tushgan operatsiyalar miqdori (tushumlar, QQS va boshqa tushumlar), lekin bunda Bank yoki boshqa banklardagi hisobvaraqlardan o‘tkazilgan kredit mablag‘lari va kredit ajratmalaridan tushgan mablag‘lar bu tushumlar hisoblanmaydi.

7.5. Bankda ajratilgan kreditni va unga hisoblangan foizlarni ushbu shartnomada keltirib o‘tilgan asoslarga ko‘ra undirish huquqi vujudga kelganida, Bank undiruvni ushbu shartnomaning 7.1-bandida nazarda tutilgan har qanday ta‘minotga qaratadi.

7.6. Qarz oluvchining kredit bo‘yicha taqdim qilgan ta‘minoti kredit asosida yuzaga kelgan asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni qaytarishga yetmagan taqdirda, Bank kredit qarzdorligini qaytarish maqsadida qonunchilikda belgilangan tartibda undiruvni Qarz oluvchining likvidli boshqa har qanday turdagi mol-mulklariga hamda pul mablag‘lariga qaratishga haqli.

7.7. Kredit ta‘minoti yo‘qotilganida (garovning nobud bo‘lishi, kafilning to‘lov qobiliyatini yo‘qotishi va hokazo) Qarz oluvchi kredit ta‘minoti uchun yo‘qotilgan ta‘minot miqdoridan kam bo‘lmagan ta‘minotni Bankka taqdim qiladi.

7.8. Kredit ta‘minotini kamaytirish, ko‘paytirish, o‘zgartirish, bekor qilish masalalari amaldagi qonunchilik va Bankning ichki kredit siyosatiga muvofiq hal qilinadi.

8. MAJBURIYATLARNI BAJARMASLIK HOLATLARI

8.1. Quyidagi holatlar Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarni bajarmaslik holatlari hisoblanadi:

8.1.1. ajratilgan kredit mablag‘laridan maqsadli (ushbu shartnomaning 2.5-bandida ko‘rsatib o‘tilgan maqsadlar) foydalanilmaganligi.

8.1.2. Kredit bo‘yicha asosiy qarz, foiz va boshqa to‘lovlar ushbu shartnomada yoki Bank bilan tuzilgan boshqa kelishuvlarda belgilangan muddatlarda to‘lanmaganligi.

8.1.3. Qarz oluvchi banklardan olgan boshqa har qanday kredit bo‘yicha asosiy qarz, foiz va boshqa to‘lovlarni belgilangan muddatlarda to‘lash majburiyatini bajarmaganligi.

8.1.4. Qarz oluvchi uchinchi shaxslar oldidagi kreditor qarzdorliklarini qaytarish majburiyatini bajarmaganligi.

8.1.5. Qarz oluvchi uchinchi shaxslar oldidagi debitor qarzdorliklarini undirish choralarini ko‘rmaganligi.

8.1.6. Qarz oluvchi o‘ziga tegishli pul mablag‘larini miqdoridan qat‘iy nazar o‘zining odatdagi faoliyat turiga muvofiq bo‘lmagan, daromad olishga qaratilmagan maqsadlar uchun (beg‘araz yoki uzoq muddatli moliyaviy yordam va hokazo) sarflab yuborishi.

8.1.7. Qarz oluvchi o‘ziga tegishli ko‘char va ko‘chmas mulklarni bozor bahosidan arzon bahoda realizatsiya qilishi.

8.1.8. Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashishi (to'lovlarni amalga oshirishga qodir emasligi, zarar ko'rib ishlashi, nolikvid balans, bankrotlik ishi qo'zg'atilishi va boshqalar).

8.1.9. Buxgalteriya hisobi lozim darajada yuritilmasligi, taqdim etilgan hisobotlarning noto'g'riligi (haqqoniy emasligi).

8.1.10. Mazkur shartnomaga asosan Qarz oluvchi hisobot ma'lumotlarini taqdim etmasligi, bank nazoratidan (monitoring) bo'yin tovlashi (bosh tortishi).

8.1.11. Qarz oluvchi tomonidan Bankka kredit hujjatlari rasmiylashtirilayotganda taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqqoniy emasligi aniqlanishi.

8.1.12. Bank ushbu Shartnoma bilan belgilangan shartlar bajarilishini tekshirish va nazorat qilish huquqiga ega. Majburiyatlarni bajarish bo'yicha muddat buzilgan taqdirda, Qarz oluvchi zudlik bilan qo'shimcha ta'minot taqdim etish yoki Bank tomonidan belgilangan miqdorgacha kreditni kamaytirish majburiyatini oladi. Ushbu hollarda, agar Qarz oluvchi Bank tomonidan belgilangan muddat ichida Bank uchun qabul qilinadigan boshqa ta'minot taqdim etmasa yoki kredit miqdorini Bank belgilagan darajagacha kamaytirmasa, Bank kredit va uning foizlarini darhol to'lanishi lozim bo'lgan qilib belgilash huquqiga ega.

8.1.13. Qarz oluvchi (i) Qarz oluvchi va Bank o'rtasida yoki (ii) Qarz oluvchi va Bank guruhining har qanday a'zosi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq o'zining to'lov majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarmasligi yoki ushbu shartnomalardan birontasini boshqa tarzda buzishi. Kompaniya guruhi a'zolaridan biri (Qarz oluvchining affillangan shaxsi sifatida tasniflangan shaxs) yoki Qarz oluvchining egalari yoki a'zolaridan biri (i) Qarz oluvchi va Bank o'rtasida yoki (ii) Qarz oluvchi va Bank guruhining har qanday a'zosi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq o'zining to'lov majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarmasligi yoki ushbu shartnomalardan birontasini boshqa tarzda buzishi.

8.1.14. Qarz oluvchi boshqa yuridik shaxsga qo'shilish (birlashish), qayta tashkil etish, kapital miqdorini kamaytirish yoki tugatish (likvidasiya) jarayoniga kirishishi.

8.1.15. Qarz oluvchining ta'sischilari Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashishiga yoki Qarz oluvchining mulklari va pul mablag'lari begonalashishiga qaratilgan bitimlar tuzishi va Qarz oluvchidan ushbu maqsadlarga qaratilgan harakatlarni bajarishni talab qilishi.

8.1.16. Qarz oluvchi o'zining uchinchi shaxslar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajara olmaslik holatiga keltirib qo'yishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday bitimlarga atayin kirishishi.

8.1.17. Ushbu shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday ruxsatnoma, litsenziya, registratsiya, guvohnoma va boshqa hujjatlarning o'z kuchini yo'qotishi (bekor bo'lishi).

8.1.18. Qarz oluvchi ushbu shartnoma bo'yicha hamda garov, ipoteka, sug'urta shartnomalari, shuningdek, mazkur shartnoma bilan bog'liq boshqa shartnomalar bo'yicha majburiyatlarini bajarmasligi.

8.1.19. Vakolatli organlar tomonidan Qarz oluvchi faoliyatining tugatilishi yoki operatsiyalarni amalga oshirishini to'xtatilishi xususida choralar qo'llanilishi yoxud shunga o'xshash holatlarning yuzaga kelishi.

8.1.20. Kredit mablag'lari hisobiga sotib olingan mulklar, tovar va uskunalarni o'z maqsadi bo'yicha ishlatmaslik va begonalashtirish.

8.1.21. Qarz oluvchi yoki uning yuqori lavozimdagi rahbarlari yoki vakillariga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilsa yoki jinoiy ish qo'zg'atish to'g'risida qaror qabul qilinsa.

8.1.22. Qarz oluvchining to'lov hisobiga nisbatan ijro ish yuritish boshlansa yoki rasmiy o'tkazish buyrug'i va o'tkazish orderi taqdim etilsa.

8.1.23. Ro'yxatdan o'tkazuvchi sud tomonidan sud nazorati jarayoni boshlansa yoki boshqa hokimiyat organi yoki sud Qarz oluvchining shartnoma majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi qaror qabul qilsa yoki ish boshlasa.

8.1.24. Ushbu Shartnomada aniq ko'rsatilgan moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan majburiyatlarni bajarmaslik;

8.1.25. Qarz oluvchi va uning affillangan shaxslari yoki ushbu Shartnoma doirasidagi har qanday operatsiyalar sanksiyalarga yoki cheklov choralariga duchor bo'lsa va Bank uchun ushbu Shartnomani davom ettirishni taqiqlaydigan yoki noqonuniy harakatga keltiruvchi cheklov choralariga duchor bo'lsa.

Yuqoridagi majburiyatlarni bajarmaslik holati yuzaga kelganda, Bank ushbu Shartnomani bekor qilish va asosiy qarz, barcha hisoblangan foizlar va boshqa majburiyatlar bilan birga barcha qoldiq qarzning darhol qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi;

8.1.27. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan qarzni qaytarishda salbiy ta'sirga ega boshqa majburiyatlarni, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, 6.4 va 2.11-bandlarda ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik.

9. MAJBURIYATLARNI BAJARMASLIK HOLATLARI VUJUDGA KELGANDA AMALGA OSHIRILADIGAN HARAKATLAR

9.1. Majburiyatlarni bajarmaslik holatlari vujudga kelganligi Bank tomonidan aniqlangan taqdirda, Bank Qarz oluvchini kreditlashni to'xtatadi, majburiyatni bajarmaslik holatlarini bartaraf etish, aks holda kreditni va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarish xususida talabnoma yuboradi.

9.2. Qarz oluvchi tomonidan aniqlangan holatlar talabnoma yuborilganidan so'ng 15 (o'n besh) kalendar kuni ichida bartaraf etilmagan taqdirda yoki kredit va unga hisoblangan foizlar muddatidan oldin qaytarilmagan bo'lsa Bank quyidagi choralardan birini qo'llashi mumkin:

Qarz oluvchining kreditdan foydalanishini to'xtatish;

– kredit uchun foizlarni yuqori stavkada hisoblash (10.2-bandga ko'ra);

– ushbu shartnomada kelishilgan neustoykalarini, yig'implarni va boshqa javobgarlik choralari qo'llash;

– kreditning asosiy qarzi, hisoblangan foizlar va boshqa to'lovlarni muddatidan oldin, undiruvni kredit ta'minotiga qaratgan holda undirish to'g'risida sudga murojaat qilish;

– Bank o'z ixtiyoriga ko'ra, Bank tomonidan belgilangan tartibda va []dan kam bo'lmagan miqdordagi to'lovni to'lash sharti bilan, Qarz oluvchi tomonidan ayrim Majburiyatlarni bajarmaslik holatlari bo'yicha istisno qilishi mumkin. Ushbu istisno Bankning majburiyati emas, huquqidir va hech qanday holatda kelajakdagi majburiyatlarni mabjarmaslik uchun precedents sifatida qabul qilinmaydi.

Bank ushbu shartnomada va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanishi mumkin.

9.3. Majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari:

Agar Shartnoma shartlarining buzilishi va/yoki Sanksiyalarga bog'liq qonunga hilof holat sodir bo'lsa, Bank o'z ixtiyoriga ko'ra Qarz oluvchi tomonidan Shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik xolati vujudga kelganligini e'lon qilishi va Shartnomani bir tomonlama bekor qilishi (shu jumladan, transhni olish huquqini bekor qilish) va qarzni muddatidan oldin qaytarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Bunday holatda:

– asosiy mablag', barcha hisoblangan foizlar, to'lovlar, xarajatlar va to'lanishi kerak bo'lgan boshqa mablag'lar darhol Bankga to'lanishi lozim bo'lgan va to'lanishi shart bo'lgan deb hisoblanadi;

– Qarz oluvchi tomonidan olinmagan har qanday joylashtirilgan mablag' keyinchalik olinmaydi;

– Bank barcha hisob-kitoblarni amalga oshirishi va Qarz oluvchidan undirishi, shuningdek Qarz oluvchi Shartnomaga muvofiq barcha penya foizlarini to'lashi shart;

– Korporativ kafilliklar darhol kuchga kiradi va Bank o'z majburiyatlarini Qarz oluvchidan yoki Shartnomaga muvofiq boshqa mas'ul shaxsdan undirish huquqiga ega bo'ladi.

Bank shartnomani bekor qilish to'g'risida yozma xabarnoma taqdim etish orqali Qarz oluvchini xabardor qiladi.

Qarz oluvchi yozma xabarnomani olgan kundan e'tiboran (agarda Bank ushbu xabarnomada Qarz oluvchiga ma'lum bir majburiyatni bajarish uchun keyingi muddatni belgilab bermasa) ushbu Shartnoma bekor qilingan deb hisoblanadi.

10. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

10.1. Tomonlarning ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishi mazkur shartnoma shartlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

10.2. Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda (muddati o'tgan kredit), Qarzdor Bankka asosiy qarzning muddati o'tgan qismiga butun kechiktirilgan davr uchun _____ foiz hisoblanadi.

10.3. Foizlarni belgilangan muddatda to'lamaganlik va ular bo'yicha muddati o'tgan foiz summaları vujudga kelgani uchun Qarzdor Bankka kechiktirilgan foiz to'lovlarining har bir kuni uchun kechiktirilgan foiz to'lovlari summasining 0,1 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan foiz to'lovlari summasining 15 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

10.4. Qarz oluvchi kredit mablag'laridan maqsadsiz foydalansa, Bankka maqsadsiz foydalangan kredit summasining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

10.5. Bank tomonidan Qarz oluvchiga o'z vaqtida kredit ajratilmaganda (Qarz oluvchi tomonidan bankka to'lov topshiriqnomasi taqdim etilganda), Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 20 foizidan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

10.6. Tomonlarning yuqori foiz yoki penyalar to'lashi shartnoma shartlarini bajarish majburiyatidan ozod qilmaydi.

10.7. Mazkur shartnomada belgilanmagan holatlar bo'yicha tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'rnatiladi.

11. SANKSIYALAR BILAN BOG'LIQ XATARLARNI BOSHQARISH BO'YICHA SHARTLAR

11.1. Ushbu bo'lim bandlarining shartlari doirasida:

«Guruh» — Qarz oluvchi tomonidan tashkil etilgan va unga bog'liq bo'lgan kompaniyalar guruhi, jumladan manfaatdor mulkdorlar va yaqindagi bosh kompaniyalar, O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuniga muvofiq belgilanadi.

«Sanksiyalangan shaxs» — Sanksiyalarga duchor bo'lgan deb belgilangan yoki boshqacha tarzda Sanksiyalarga duchor bo'lgan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs, jumladan, lekin cheklanmagan holda:

– Sanksiyaga tushgan deb belgilangan shaxsning to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita mulkdorligi yoki nazorati;

– Qonunlarga muvofiq, fuqaroligi, yashash joyi bo'yicha sanksiya qo'llanilgan mamlakat yoki hududlar, umumiy Sanksiyalar yoki butun hudud bo'ylab qo'llaniladigan Sanksiyalar joriy qilingan hududda joylashuvi yoki ish joyi.

«Sanksiyalar» — Quyidagilar tomonidan (yoki ularning har qanday agentligi tomonidan) joriy etilgan, boshqariladigan yoki ijro etilgan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar, savdo embargolari yoki shunga o'xshash quyidagi choralar:

– Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT);

– Amerika Qo'shma Shtatlari;

– Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi;

– Yevropa Ittifoqi yoki uning har qanday a'zo davlatlari;

– O'zbekiston Respublikasining har qanday vakolatli organlari;

– yoki sanksiyalarni joriy qilishga vakolatli har qanday boshqa organlar.

«Sanksiyalangan yuridik shaxs/jismoniy shaxs» — Sanksiya maqsadi sifatida belgilangan yoki boshqacha tarzda sanksiyaga duchor bo'lgan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs, jumladan, lekin cheklanmagan holda:

– Sanksiyaga tushgan deb belgilangan shaxsning to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita mulkdorligi yoki nazorati;

– Qonunlarga muvofiq, fuqaroligi, yashash joyi, mamlakat yoki hududidagi ish joyi yoki joylashuvi, bu mamlakat yoki hududda umumiy sanksiyalar joriy etilgan holatlar (jumladan, lekin cheklanmagan holda: Birma/Myanma, Kuba, Eron, Shimoliy Koreya, Sudan, Venesuela va Suriya davlatlari, ammo vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin bo'lgan davlatlar).

11.2. Ushbu Bitim bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar ularning har biri xalqaro iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar qonunlari va qoidalariga, shu jumladan Qo'shma Shtatlar, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qo'llaniladigan qoidalarga rioya qilishga qaratilgan siyosat va tartiblarga rioya qilishlarini va ularni qo'llab-quvvatlashlarini tan oladilar va tasdiqlaydilar.

11.3. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha taqdim etilgan kredit mablag'larini sanksiyalar qo'llaniladigan yurisdiksiyalarda joylashgan yuridik shaxslarga sanksiyalangan/cheklangan tovarlar yoki xizmatlarni o'z ichiga olgan import, eksport va/yoki reeksport yetkazib berishni moliyalashtirish uchun foydalanilmasligini kafolatlaydi.

11.4. Bank Qarz oluvchi va uning kontragenti, hamda u bilan tuzilgan bitim bo'yicha har qandan zarur ma'lumot yoki hujjatlarni, Bankni sanksiyalarni buzish holatiga olib boradigan (kontragent to'g'risidagi ma'lumotlar, uning to'liq rekvizitlari, uning affillangan shaxslari ro'yxati, uning aksiyadorlari/muassislari tarkibi, uning ijro organi, mansabdor shaxslari, xodimlari, mahsulot to'g'risida jo'natish hujjatlari, mahsulotning spesifikasiyasi, tashuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa zarur ma'lumotlar) tovarlarni sanksiyalar ro'yxatida mavjud va mavjud emasligini aniqlash maqsadida Qarz oluvchidan talab qilishga haqli. Qarz oluvchi barcha zarur hujjat va ma'lumotlar taqdim qilmasa, Bank kredit ajratishni rad etish huquqiga ega.

11.5. Bank krediti hisobidan moliyalashtiriladigan shartnomada tomonlardan biri Rossiya, Belarus Respublikasi, Eronda yoki boshqa halqaro iqtisodiy va moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan har qanday davlatda ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, Qarz oluvchidan xalqaro e'tirof etilgan va reytingga ega bo'lgan yuridik kompaniyadan iqtisodiy yoki moliyaviy sanksiyalar bo'yicha xalqaro qonunchilik talablariga muvofiqligi to'g'risida huquqiy xulosani olishga haqli. Ushbu huquqiy xulosa Bank uchun kredit amaliyotini bajarishga majburiy hisoblanmaydi, Bank mazkur amaliyotni o'tkazishga mustaqil hisoblanadi.

11.6. Qarz oluvchi tomonidan yuridik xulosani olishda qilingan xarajatlar Bank tomonidan qoplanmaydi.

11.7. Qarz oluvchi yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushishi xavfi mavjud bo'lganda, Bank operatsiyani o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash, operatsiya miqdorini chegaralash, kredit ajratishni rad etish huquqiga ega.

11.8. Qarz oluvchining kontragentiga (yoki unga xizmat ko'rsatuvchi bankka) nisbatan sanksiyalar rejimiga taalluqli har qanday cheklovlar qo'llanilgan taqdirda, Qarz oluvchi ularga rioya qilish choralari ko'rish majburiyatini oladi (huquq va majburiyatlarni sanksiya cheklovlari qo'llanilmagan boshqa tomonga o'tkazish, Qarz oluvchi kontragentiga xizmat ko'rsatuvchi bankka sanksiya cheklovlari qo'llanilgan bo'lsa, ushbu holatda kontragent o'ziga xizmat ko'rsatuvchi bankni sanksiya taqiqlariga tushmagan bankka o'zgartirish majburiyatini oladi va boshqalar). Qarz oluvchi tomonidan ushbu talablar bajarilmagan taqdirda, Bank Qarz oluvchiga kredit ajratishni bir tomonlama rad etishga haqli.

11.9. Qarz oluvchining faoliyati sanksiya bo'yicha xalqaro qonunchilikka nomuvofiq bo'lgan taqdirda yoki Bank tomonidan mijozning tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish rad etilgan hollarda, Bank 5 (besh) ish kuni ichida Qarz oluvchini qoidalar buzilganligini tasdiqlovchi faktlarni/materiallarni ilova qilgan holda yozma ravishdagi xabarnomani Qarz oluvchining pochta manziliga yuboradi.

11.10. Qarz oluvchi ushbu shartlarning talablariga asosan yozma xabarnomada qayd etilgan qoidalarni buzilganlik faktlarini/materiallarini rad etuvchi asoslari mavjud bo'lsa, bu haqida Bankni xabarnoma olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida ularni Bankka taqdim etishga haqli.

11.11. Qarz oluvchi Bank kreditidan foydalanishda uning kontragenti, kontragentga xizmat ko'rsatuvchi bank, ularning affillangan shaxslari, kontragent aksiyadorlari yoki muassislari, uning ijro organi, ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari, shu bilan birga olinayotgan tovar va xizmatlar sanksiya ro'yxatiga kiritilmaganligini kafolatlaydi.

11.12. Shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida Qarz oluvchi (shuningdek, Guruhning biron-bir a'zosi) to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ravishda qarz mablag'larini (va/yoki ushbu mablag'larni qarzga berish, topshirish yoki boshqa usullarda har qanday shaxsga) taqdim etish natijasida Bank tomonidan Sanksiyalarni buzilishini keltirib chiqaruvchi (shu jumladan, ushbu mablag'lar Sanksiyalangan shaxs yoki ular bilan bog'liq shaxslar tomonidan amalga oshirilgan yoki moliyalashtirilgan har qanday biznes yoki operatsiyani moliyalashtirish yoki osonlashtirish uchun ishlatish, yoki ushbu mablag'larni Sanksiyalangan shaxslarga taqdim etish yoki ularga foyda keltirish) holatlarda ishlatmasligi shart.

11.13. Qarz oluvchi Sanksiyalangan shaxsga Qarz oluvchi tomonidan Bankka joylashtirish bilan bog'liq ravishda qaytarilgan yoki o'tkazilgan mablag'lar bo'yicha hech qanday huquq bermasligini, shuningdek, Sanksiyalangan shaxs bilan bog'liq har qanday faoliyat yoki operatsiyadan tushgan daromad yoki foyda joylashtirish bilan bog'liq ravishda Bankka to'lanadigan summa uchun ishlatilmasligini ta'minlashi shart.

11.14. Qarz oluvchi o'zining bosh kompaniyasi Qarz oluvchi biznesining umumiy xususiyatida (yoki Qarz oluvchining bosh kompaniyasi biznesining umumiy xususiyatida) va Guruhning umumiy faoliyatida ushbu Shartnoma imzolangan sanadagi holatga nisbatan o'zgarishlar kiritmasligini ta'minlashi shart.

11.15. Sanksiyalar bilan bog'liq qonunbuzarliklar:

(A) Agar Bankning Qarz oluvchi bilan tuzilgan Shartnomasiga muvofiq o'z majburiyatlarini bajarishi, moliyalashtirishi, to'lov amalga oshirishi yoki o'z majburiyatlarini saqlashi, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan har qanday yurisdiksiyada noqonuniy bo'lib qolsa, yoki

(B) Qarz oluvchi (yoki Guruhning biron-bir a'zosi) Sanksiyalangan shaxsga aylansa:

– Bank bu haqda bilishi bilan darhol Qarz oluvchini xabardor qiladi (yoki (B) holatida Bank buni o'z xabarnomasida yoki keyingi xabarnomalarida ko'rsatishi mumkin);

– Bank Qarz oluvchini xabardor qilgandan keyin (yoki (B) holatida Bank buni o'z xabarida yoki keyingi xabarnomasida ko'rsatsa), Shartnoma bo'yicha mavjud mablag'lar darhol bekor qilinadi; va

– Qarz oluvchi (yoki (B) holatida Bank buni o'z xabarnomasida yoki keyingi xabarnomada ko'rsatsa) Shartnoma bo'yicha Bankka to'lanishi kerak bo'lgan har qanday mablag'ni Bankning xabarnomasida ko'rsatilgan kunga qadar to'lashi shart.

12. FORS-MAJOR HOLATLARI

12.1. Agar shartnoma imzolangandan so'ng, tomonlarning erki va istagiga bog'liq bo'lmagan hamda oldindan ko'ra bilib yoki oldini olib bo'lmaydigan, favqulodda vaziyatlar oqibatidagi yengib bo'lmaz kuch tufayli tomonlar mazkur Shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmasalar (fors-major), buning uchun ular javobgar bo'lmaydilar. Bunda tomonlarning hech biri, ajratilgan kreditni qaytarish bo'yicha majburiyatdan tashqari, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashni talab qilishga haqli bo'lmaydi.

12.2. Quyidagilar favqulodda vaziyatlar (fors-major) bo'lib hisoblanadi: suv toshqini, yong'in, zilzila, portlash, bo'ron, yer ko'chkisi, epidemiya va boshqa tabiat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar, fuqarolik tartibsizliklari, terrorchilik harakatlari, sanksiyaalar, hukumat va davlat organlarining aktlari.

12.3. Shartnomaning 12.1-bandida ko'rsatilgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlariga tushgan tomon boshqa tomonni bunday holatlar boshlanganligi to'g'risida yozma ravishda 2 kun ichida xabardor qilishi va tugaganligi to'g'risida ham ikkinchi tomonni ma'lum qilishi shart.

12.4. Yengib bo'lmaydigan kuch holatlari sodir bo'lgan taqdirda, shartnomaning amal qilish muddati shunday holatlar va uning oqibatlari butun davriga teng muddatga uzaytiriladi.

12.5. Fors-major holatiga asoslanayotgan taraf, darhol (yoki boshlangan sanadan boshlab uch kalendar kunidan kechikmay) fors-major holatining boshlanish sanasi va tavsifini aniqlashtiruvchi yozma ravishda bevosita topshirish, pochta aloqasi yoki elektron shaklda, ularni olganligi to'g'risidagi yozma xabarnoma yuborish orqali xabar beradi.

12.6. Fors-major holatiga asoslanayotgan taraf, vakolatli davlat idorasining bunday holatlarning vujudga kelganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatini taqdim etishi shart.

12.7. Fors-major holatlari vujudga kelgan taqdirda, Tomonlar darhol yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish yo'llarini qidirish uchun muzokaralar olib boradilar va bunday holatlarning oqibatlarini kamaytirish uchun barcha vositalarni qo'llaydilar.

13. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

13.1. Tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar va/yoki ushbu shartnomada nazarda tutilmagan nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qilgan holda barcha kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.

13.2. Tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan hal qilinmagan taqdirda, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Bankning ushbu shartnoma asosida kredit ajratgan filiali joylashgan hududdagi iqtisodiy sudga murojaat qilish orqali hal etiladi (Shartnoma bo'yicha sudlovga tegishlilik).

13.3. Bank kredit mablag'larining muddatida qaytarilmaganligi natijasida vujudga keladigan nizolarni sudgacha hal qilishning quyidagi usullaridan foydalanishi mumkin:

- Qarz oluvchiga kredit to'lovlarini amalga oshirishi to'g'risida talabnoma yuborish;
- Qarz oluvchining banklardagi barcha hisobvaraqlaridan (asosiy, ikkilamchi, valyuta, depozit, plastik, maxsus va x.k.) pul mablag'larni uning roziligini olmagan holda yechib olish.

13.4. Kredit to'lovlarini amalga oshirishi to'g'risida talabnoma Qarz oluvchi hamda kafil va kredit ta'minoti egalarining Bankka ma'lum bo'lgan manziliga pochta orqali (yoki mavjud elektron manziliga, shuningdek taraflar o'rtasida kelishilgan boshqa aloqa vositalariga) yuboradi.

- Bank yo'llaydigan talabnomada bank nomi va uni identifikatsiyalash uchun yetarli ma'lumotlar, talabnoma rasmiylashtirilgan sanadagi kreditning joriy qarzdorligi miqdori va tarkibi, qarzni to'lash muddati 10 (o'n) kun, talabnomada ko'rsatilgan muddatgacha Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatlari, kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun neustoyka (jarima, penya) qo'llanilishi va ularning natijasida Qarz oluvchining xarajatlari summasi oshishi ehtimolini bildirib, nizoni sudgacha hal qilish bo'yicha bankka murojaat qilish lozimligi ko'rsatiladi.

- Talabnoma yuborilgan (pochtaga topshirilgan) kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida Qarz oluvchi (qo'shimcha qarzdor, kafil) unda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, Bank tegishli talab bilan sudga da'vo ariza bilan murojaat qilishga haqli.

- Bunda Bank talabnomadagi summani yoki o'z tanloviga ko'ra da'vo ariza rasmiylashtirilayotgan sanadagi mavjud jami qarzdorlikni muddatidan oldin undirish bo'yicha sudga da'vo ariza (ariza) kiritishga haqli bo'ladi.

13.5. Bankning ushbu shartnomaning 13.3-bandida ko'rsatilgan usullardan foydalanmasligi uni sudga murojaat qilish huquqidan mahrum qilmaydi.

13.6. Ushbu shartnoma bilan bog'liq bo'lgan har qanday sud jarayonida, shartnomadan kelib chiqqan holda Bankka to'lanishi lozim bo'lgan barcha pul mablag'lari bo'yicha Bank hujjatlari mazkur pul mablag'lari Bankka tegishlilikini va unga to'lab berilishi lozimligini isbotlovchi birlamchi (prima facie) dalil bo'lishi lozim. Hususan, Qarz oluvchining

hisobvaraqlaridan Bank ko'chirmalari, agar ularda yaqqol ko'rinib turgan xatoliklar bo'lmasa, Qarz oluvchining shartnoma bo'yicha to'lov majburiyatlari vujudga kelganligining va/yoki bajarilganligining yakuniy dalili hisoblanadi.

14. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

14.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korrupsion xarakatlarni to'liq ta'qiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish., raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo'lsa) talablariga amal qiladilar.

14.2. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zlari, na ijroiya organi, na ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmasliklarini kafolatlaydi.

14.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraflar yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

14.4. Yozma xabarnomalar Bank tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens ishonch liniyasi" kanallari (tel: +99878-150-36-99, veb sayt www.ipotekabank.uz, Telegram messenjer (@Compliance_control_bot) orqali amalga oshiriladi.

14.5. Ushbu bo'lim qoidalari tomonlardan biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa tarafning qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

14.6. Mazkur shartnomani korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash tomonlar tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

15. BOSHQA SHARTLAR

15.1. Ushbu shartnoma Qarz oluvchining uchinchi shaxslar bilan tuzgan har qanday turdagi shartnomalari (bitimlari)dan yuridik jihatdan mustaqil bo'lib, Qarz oluvchi uchinchi shaxslar bilan tuzgan shartnomalari (bitimlari) qoidalari asoslanib Bankka e'tiroz bildirmaydi.

15.2. Har bir tomon ushbu shartnoma predmeti va shartlariga bog'liq ma'lumotlarning maxfiyligini saqlaydilar. Ushbu ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra tegishli organlarga berilishi bundan mustasno.

15.3. Ushbu shartnoma Tomonlar o'rtasida imzolanganidan so'ng kuchga kiradi hamda Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi.

15.4. Mazkur shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida amalga oshirilishi mumkin.

15.5. Ushbu shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda, imzolagan ko'shimcha kelishuvlar tarzida rasmiylashtiriladi. Ushbu shartnoma va ko'shimcha kelishuvlar shartlari bir-biriga zid bo'lgan taqdirda, ko'shimcha kelishuv shartlari amal qiladi.

Ushbu shartnoma bekor qilinishida Qarz oluvchi kredit bo'yicha asosiy qarzni va hisoblangan foizlarni to'liq qaytarishi shart.

15.6. Bank ushbu shartnoma doirasidagi har qanday xabarnoma, ogohlantirish yoki talabnomani o'z ixtiyoriga ko'ra Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnomaning 16-bo'limida ko'rsatilgan pochta manziliga buyurtma xat ko'rinishida, telefon raqamiga SMS-xabar ko'rinishida, elektron manziliga elektron xabar ko'rinishida yuborishi mumkin. Xabarnoma, ogohlantirish yoki talabnoma "Internet-banking" dasturi orqali ham yuborilishi mumkin.

Xabarnoma, ogohlantirish yoki talabnomani ushbu bo'limda ko'rsatilgan usullarning faqat bittasidan foydalangan holda yuborilishi Qarz oluvchiga ushbu xabarnoma, ogohlantirish yoki talabnoma lozim darajada yetkazilgan deb hisoblash uchun kifoya.

15.7. Tomonlar o'zaro munosabatlar davomida o'zlariga ma'lum bo'lgan tijorat va bank sirlarini, qonunchilikda belgilangan holatlardan tashqari, oshkor qilishi taqiqlanadi.

15.8. Tomonlarning bank rekvizitlari, manzillari, turar joylari o'zgargan hollarda albatta bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

15.9. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan, u bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

15.10. Markur shartnoma tomonlardan xar biri uchun, bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan o'zbek va inglis tillarida 2 (ikki) nusxada tuzildi.

16. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI, TO'LOV REKVIZITLARI VA IMZOLARI

Bank "Ipoteka-bank" ATIB filiali	Qarz oluvchi
Manzil:	Manzil:
Filial boshqaruvchisi:	Korxonra rahbari: